

Seyfullaeva Ayzada Tolibekovna

mustaqil tadqiqotchi

BOZOR MUNASABATLARI SHAROITIDA AGROBIZNESNING AHAMIYATI

Аннотация. Maqolada qishloq xojaligini doimiy rivojlantirishda takror ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirishni ta'minlaydigan innovatsion texnologiyalar yaratish tizimini moslashtirish, ularni hayotga jalb qilish masalalarini, yo'llarini o'rganish, ishlab chiqarishni ilmiy me'yorlar doirasida boshqarishni olib borishga qaratilgan.

Аннотация. В статье поставлена задача адаптировать систему создания инновационных технологий, обеспечивающих развитие процесса повторного производства в условиях непрерывного развития сельского хозяйства, изучить вопросы и пути их воплощения в жизнь, провести управление производством в рамках научных исследований. стандарты.

Abstract. The article aims to adapt the system of creating innovative technologies that ensure the development of the process of repeated production in the continuous development of agriculture, to study the issues and ways of bringing them into life, to conduct management of production within the framework of scientific standards.

Калит сўзлар: agrobiznes, klaster, innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish, etishtirilgan mahsulotlarni qayta ishlash, sotish, daromad, foyda va ularning taqsimlanishi.

Ключевые слова: агробизнес, кластер, эффективное использование инновационных технологий, переработка, реализация выращенной продукции, доходы, прибыль и их распределение.

Keywords: agribusiness, cluster, effective use of innovative technologies, processing, sale of cultivated products, income, profit and their distribution.

Agrobiznes – qishloq xo'jaligi tadbirkorligining eng yangi tadqiqot yo'nalishlaridan biri. Qishloq xo'jaligida daromad keltiradigan har qanaqa sohada mahsulotni, jarayonni, investitsiyalarni boshqarishni yo'lga qoyilishi yordamshi omilga aylanmoqta.

O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlarining katta hajmi qishloq xo'jaligida etishtiriladi. Shunga mos ravishda mamlakatta qulay va potentsial agrobiznes muhiti yaratilgan bo'lishi talab etiladi. Sababi mamlakatning moslashishi ko'p jihatdan qishloq xo'jaligiga bogliq. U past rentabellik ko'rsatkishiga ega bo'lsa da, kutilganidek samara bermayotgan bo'lsa da biz undan hozirsha birdaniga voz keship ketolmaymiz. Bizning oldimizdagi birdan-bir yo'l bu mamlakatda agrobiznesni aktiv qo'llab-quvvatlash, kamshiliklarini tartibga solish yana uning yangi tarmoqlarini yo'lga qoyish bilan bogliq boladi.

Lekin shunga qaramasdan O'zbekiston sharoitida agrobiznesni tadqiqot ishlari biroz past darajada. Bu yonalishda o'zbek olimlari tamonidan juda kam tadqiqotlar olib borilgan. Shularni hisobga olgan holda biz bu sohani yana da shuqurroq o'rganish va tadqiqot qilish kerak, umumiy tahlillar o'tkazib shunga muvafiq takliflarni olga surish kerak deb hisoblaymiz.

Bunga bogliqligi tadqiqotimizning asosiy maqsadi shunda, O'zbekistonda zamonaviy va raqobatga bardoshli agrobiznesni yaratish mumkinmi, agar mumkin bo'lsa, buning asosiy kafilligi sifatida nimalarni keltirib o'tishimiz mumkin, unga nimalar halaqit beradi? degan masalarga echim topishdan iborat.

Qishloq xo‘jalik sohasida ayni tadbirkorlik faoliyati bilan shugullanadigan sub‘ektlar – agrobiznes sub‘ektlari hisoblanadi. Mamlakatimizda olib borilayotgan o‘zgarishlar bu sohadagi qobiliyatli boshqaruvshilarga keng yo‘l ochib bermoqda. Shuni aytish kerak, agrobiznes – bozor iqtisodiyotining qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi yana uning mahsulotlarini qayta ishlash, sotish, saqlash, taqsimlash bilan bogliq soha bolib hisoblanadi.

Agrosanoat kompleksi tizimida barcha xo‘jalik yurituvshi sub‘ektlarning tadbirkorlik faoliyatiga asoslangan boshqaruvi agrobiznesning shaxsiy shakllari rivojlanishini taminlaydi. Agrobiznes qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, etkazib berish va yakunlovchi xoridorga erkazishni rivojlantirishni oldindan belgilaydi. Agrobiznes agrosanoat kompleksining asosiy tuzuvchi omili bolib, bozorda iqtisodiy munasabatlarning yuqori darajadagi raqobatga bardoshligini saqlaydi. Agrobiznesning rivojlanishi mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligi va fuqarolariga ijtimoiy farovonligini ta‘minlash manfaatlariga ta‘sir ko‘rsatadi.

Garb iqtisodiy adabiyotlarida agrobiznes ta‘rifi berilgan. Unga ko‘ra, agrobiznes – qishloq xo‘jaligida etkazib berish sohasidagi xizmatlarni, ishlab chiqarish va taqsimlash boyisha barcha operaciyalar, fermer xo‘jaliklarida ishlab chiqarish operaciyalari, qishloq xo‘jaligi xom-ashyo mahsuloti va undan tayorlangan tovarlarni saqlash, qayta ishlash, sotish bo‘yicha operatsiyalar kompleksi hisoblanadi.

Agrobiznesning maqsadi – qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talabni to‘la ta‘minlash sharoitida daromadni maksimal darajada oshirish hisoblanadi. Agrobiznesni bunaqa tushinish uni qishloq xo‘jaligini zarur resurslar bilan taminlash, oziq-ovqat va texnikaviy xom-ashyo mahsulotni ishlab chiqarish, qayta ishlash va taqsimlashning ketma-ket boshqishlarini amalga oshirishni muvofiqlashtirish tizimi sifatida ko‘rib chiqishga imkoniyat beradi.

Agrobiznesning eng zarurli tashkiliy qismi oziq-ovqat maqsadlari ushun qishloq xo‘jaligi xom-ashyo mahsulotini qayta ishlashni o‘z ichiga olgan oziq-ovqat kompleksi hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligining sanoat rivojlanishi quyidagi progressiv qonuniyliklar bilan birga keladi:

Birinshidan, qishloq xo‘jaligida band bo‘lganlar sonining qisqarishi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun zarur bolgan mehnatning bir qismini o‘simlikshilik va chorvachilikning eski tarmoqlaridan sanoat, qurilish, savdo sohalariga o‘tkazish progressiv hodisa bo‘lib hisoblanadi, sababi bu pul, moddiy, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish imkoniyatini beradi va butun jamiyatning mehnat resurslari;

Ikkinchidan, qishloq xalqi tomonidan istemol qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlarining bozorga tushmaydigan qismining kamayishi;

Uchinchidan, shahar va qishloq xo‘jaligidan tashqari xalq ulushining ortishi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga moljallangan strategiyasini tasdiqlash haqida»gi 5853-sonli farmonida¹ qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning bir qator ustun turadigan strategiyalari belgilab berilgan. Sohaning boshqarishida mamlakat ishtirokini kamaytirish, qo‘lay agrobiznes muhitini va oshirilgan narx zanjirini yaratish boyicha belgilangan ustun turadigan yonalishlar ayni agrobiznesda boshqarish, tashkillashtirish va investiciyaviy xizmatga itibor qaratish zarurligini keltirib chiqaradi.

Shu bilan bir qatorda qishloq xo‘jaligida talabga javob beradigan quyidagi huquqiy, tashkillashtirilgan, iqtisodiy va ijtimoiy munasabatlar tizimi yaratilishi da zarurli ahamiyatga ega bolib tur:

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23-oktyabrdagi PF-5853-sonli Farmoni.

- mulkchilikning turli shakllari yuzaga kelishi natijasida erkin mulkchilik munasabatlar foyda bolishi qishloq xo'jaligida tadbirkorlikning har xil turlarini yaratish, ularni rivojlantirish yo'llarini takomillashtirish, yer-suv islohotlarini, puxta texnologiyalarni katta hajmda foydalanish yo'llarini aniqlab, natijani amalda qollanish, tajribasini oshirishga qaratish;

-sohaning sheklangan ishlab chiqarish resurslari (er-suv, kapital, mehnat, intellektual qoboliyati)dan innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish, etishtirilgan mahsulotlarni qayta ishlash, sotish, daromad, foyda va ularning taqsimlanishi, investitsiyalarni qoshish, ulardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni maqsadga muvofiq joylashtirish, ixtisoslashtirish va agrosanoat integratsiyasini xalqaro munasabatlar asosida tashkillashtirish bilan bogliq bo'lgan iqtisodiy munasabatlar tizimini to'la takomillashtirish.

Yuqorida aytib o'tgandek, iqtisodiy munasabatlar tizimini yaratishda respublikamiz qishloq xo'jaligining alo xususiyatlarini itiborga olgan holda tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy qonunlar, iqtisodiy kategoriyalar talablaridan oqilona foydalanish talab etiladi.

Qishloq xo'jaligini doimiy rivojlantirishda takror ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirishni taminlaydigan innovatsion texnologiyalar yaratish tizimini moslashtirish, ularni hayotga jalb qilish masalarini, yo'llarini o'rganish, ishlab chiqarishni ilmiy meyorlar doirasida boshqarishni olib borishni tashkil etadi. Klasterlarni shakllantirishdan maqsad — shahar, tuman va viloyat ishida joylashgan birdek sohaning korxonalarini va ular bilan birdan-bir texnologik zanjirda bo'lgan ta'lim, ilmiy, injenering, konsalting, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va boshqa xizmatlarni integratsiyalash, innovatsion ishlab chiqarishni tashkillashtirish asosida raqobatbardosh tovarlar yaratilishiga yo'naltirishdan iborat hisoblanadi. Bunda xalqni ish bilan taminlash kabi zarurli tomonida ham o'z ifodasini topadi.

«Klaster»² termini ingliz tilidan olingan bolib, qoraqalpoq tilidagi tarjimosi «bo'g'lanish», «to'plam», «to'planish» manolarini beradi. «Klaster» nazariyasining asoschisi bolib, Alfred Marshallning XIX asr oxirida yozilgan «Iqtisodiyot prinsiplari» nomli asarida (1890) ixtisoslashgan tarmoq va sohalarning boshqa hududlarda integratsiyalanishi haqidagi fikrlari hisoblanadi.³

«Klaster» nazariyasi jahon keng jamiyatshiligida jadal o'sib bormoqta, yana uni amaliyotda qo'llash esa milliy va regionlik iqtisodiy rivojlanishning asosiy yonalishiga aydonmoqta. 1980 yillardan keyin «Klaster nazariyasi» ning rivojlanishida 3ta muhim (Amerika, Britaniya va Skandinaviya boshqa) ilmiy maktablar yutuqlaridan ko'rishimiz mumkin.

Jahon olimlar nazariyalarida klasterler — ishlab chiqaruvshilarning raqobat ortiqmashiligini oshirishda yuqori samarali bo'lib, ularning hududdagi talim, fan, texnologik, iqtisodiy va boshqa xizmat ko'rsatuvchi sub'ektlar faolligi bilan mos tizimi ekanligi aytiladi.

Britaniya nazariyashilarining (J. Dannin, K. Brimen, A. Shmit, J. Xamfrilar) fikriga ko'ra, klaster - o'zaro sheriklikdagi institutlar tizimi sifatida iqtisodiyotning asosini belgilaydigan institutsional nazariyalar bo'lib hisoblanadi.

Skandinaviya olimlari (B.O. Lundval, B. Yonson, B. Asxaym, A. Izakson) — klasterning evolyucion rivojlanishi bir qator bosqichlardan o'tishini quyidagicha aytadi, ya'ni tugilishidan to tugaganigacha.⁴

Biologiya fanida «genlar klasteri», «bakteriyalar klasteri», «viruslar klasteri» kabi tushunshalar bor. «Talim tizimi klasteri» kabi tushunshalar ham bor. Talim tizimidagi klaster esa, baqsha, maktab,

² ru.wikipedia.org/wiki/Клстер_(экономика)

³ Marshall, A. (1930), Principles of Economics, Macmillan, London.

⁴ Mads Bruun Ingstrup, Per Vagn Freytag, Torben Damgaard. Cluster initiation and development: A critical view from a network perspective! Competitive paper Submitted for the IMP 2009 Conference at Euromed Management, France

licey, oliy ta'lim, tayanish doktorantura, doktorantura, malaka oshirish kabi jarayonlarni o'z ichiga oluvchi butun hayot davomida talim zanjirini bir-biridan ajralmas butunlik bolib hisoblanadi.

Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda, ayniqsa iqtisodiy rivojlanishning dasturiy usullari etarli darajada foyda bera olmayotgan hozirgi davrda, Klaster nazariyasini amaliyotga qo'llanish eng maqul yo'l hisoblanadi. Klasterlashtirishni korxonalar innovatsion xizmatini tezlashtirish asosida raqobat bardoshlilikini oshirish va ularning global raqobatning kuchli tasiriga qarshi turishdagi milliy va regionallik rivojlanish talablariga to'liq javob beradigan yangi iqtisodiy tizim deb qarash mumkin.

Klasterning shakllanishida mamlakatning roli muhim o'rin tutadi. Agar dastlab klasterlar faqat bozorning ko'rinmas qo'li (raqobat) sababli, transmilliy kompaniyalarni zamonaviylashtirishda ishlangan bo'lsa, keyingi vaqtda ko'plab mamlakatlarning hukumatlari bu jarayonga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan holda ularga yordam bermoqda. Klaster strategiyasi qiziqish uygotuvchi, yo'nalishlarning xilma-xilligi ham, innovatsion klasterlarni mamlakatning o'zi shakllantirishini talab etmoqda.

Klaster qatnashshilari deganda - klasterda xizmat yurituvchi bozor sub'ektlari tushiniladi.

Rivojlangan mamlakatlarning tajribalari shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni taminlashda, investitsion faollikni oshirishda, raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishda klasterlarning, xalqaro logistik markazlarining, erkin iqtisodiy zonalarining o'rni va ahamiyati juda yuqori.

Rivojlangan mamlakatlarda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va boshqarishda klasterlardan foydalanish boyicha malum tajriba toplangan.

Xalqaro amaliyotda sinalgan klaster nazariyasiga asoslangan tajribalardan foydalanish, ayniqsa iqtisodiyotimizning qishloq xojaligi va oziq-ovqat sanoati kelajagi ushuncha muhim ahamiyatga ega boladi. Har qanaqa mamlakat, aymiq, hudud yoki viloyat iqtisodiyotining raqobatbardoshlilikini, dastlab, ishlab chiqarayotgan tovarlarni mahalliy va jahon bozoridagi raqobat bardoshlilikini, yani xaridor talabi arqoli aniqlanadi. Mamlakatning talim tizimidagi islohotlar va limiy, manaviy-ta'lim rivojlanishlarning yakuniy ko'rsatkishi hamda tovarlar va xizmatlarimizning zamonaviy bozorlarda raqobatbardoshlilikining ta'minlanishi bilan baholanadi.

Ekspertlar hisob-kitoblariga ko'ra, bugungu kunda dunyodagi ilg'or davlatlar iqtisodiyotining darajasi 50 foizi klaster usuliga o'tkan. Masalan, Evropa Ittifoqida mingdan ortiq klasterlar bor bo'lib, ularda ishchi kushining 25 foizi qamrob olingan.⁵ Demak, nima uchun jahonning eng ilg'or iqtisodiyotlari ayni klasterlashtirish yolidan barmoqta?

Germaniyali mutaxassislar fikriga qaraganda, ayni klaster kelajakdagi kuchli, ayovsiz raqobat muhitida g'alaba qozonishning eng optimal yo'li hisoblanadi. Bunaqa mexanizm har qanaqa sharoitda moslasha oladi hamda iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni ketma-ketlik bilan samarali echib beradi, nafaqat maxsus bir hududning, balki davlatning xalqaro miqyosdagi bardoshlilikini mustahkamlaydi va o'rnini oshiradi.

O'zbekistonda ham mamlakat va jamiyatning takomillashgan innovatsion yo'nalishini yaratishda klaster usulidan foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bunga agrar sohadagi ish va harakatlar yaqqol misol bo'ladi. Hozirda paxta-toqimashilik klasterlari soni ortib baroyatgani, kelgusida paxta etishtirivshi 133 tumandan 70 tasi to'liq klaster tizimiga o'tishi, yangidan tuzilayotgan klasterlar tamonidan 41 korxonalar tashkillashtirilib, 25 mingga yaqin ish o'rinlarining yaratilishi rejalashtirilganligi diqqatga sazovardir.

⁵ https://single-market-economy.ec.europa.eu/news/european-clusters-panorama-2021-comprehensive-picture-economic-activity-across-eu-and-industrial-2021-12-16_en

Адабиётлар:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23-oktyabrda PF-5853-sonli Farmoni.
2. ru.wikipedia.org/wiki/Кластер_(экономика)
3. Marshall, A. (1930), Principles of Economics, Macmillan, London.
4. Mads Bruun Ingstrup, Per Vagn Freytag, Torben Damgaard. Cluster initiation and development: A critical view from a network perspective! Competitive paper Submitted for the IMP 2009 Conference at Euromed Management, France
5. https://single-market-economy.ec.europa.eu/news/european-clusters-panorama-2021-comprehensive-picture-economic-activity-across-eu-and-industrial-2021-12-16_en
6. Utegenova, S. T. (2021). Audit quality control in Uzbekistan and all over the world. ISJ Theoretical & Applied Science, 11(103), 328-332.
7. Turdi‘muratovna, U. S., & Mukhiddin, U. (2022). Features of the process of transition from national accounting standards to international standards.
8. Bayjanov, S. X., & Utegenova, S. T. (2021). ANALYSIS OF FACTORS AFFECTING THE QUALITY OF AUDIT SERVICES IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. Theoretical & Applied Science, (8), 31-34.
9. Utegenova, S., Muratbaeva, A., & Xaliqnazarova, G. (2021). PRACTICAL STATUS OF EXTERNAL QUALITY CONTROL OF AUDITS: ON THE EXAMPLE OF UZBEKISTAN AND FOREIGN COUNTRIES. International journal of Business, Management and Accounting, 1(1).
10. Bazarov, S. (2023). SO ‘G ‘D YOZUVI. Академические исследования в современной науке, 2(15), 57-59.
11. Bazarov, S. (2023). Avesto yozuvi. Академические исследования в современной науке, 2(13), 32-35.
12. Abdinazarovich, B. S. (2022). YOZUV VA UNING KELIB CHIQISH TARIXI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(4), 116-119.
13. Serofiddin o'g, S. G. A. (2024). NEURAL CELLS IN ARTIFICIAL INTELLIGENCE. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 3(30), 119-126.
14. Serofiddin o'g, S. G. A. (2024). MODERN TECHNOLOGIES OF THE WASTE RECYCLING SYSTEM IN THE MODERN WORLD. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 5(42), 32-41.
15. Жамолова, Г. М. К., Хамракулова, С. О. К., & Уралова, Н. Б. К. (2024). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НЕЙРОННЫХ СЕТЕЙ У ЧЕЛОВЕКА НА ПРИМЕРЕ РОБОТОТЕХНИКИ. Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), (6), 395-402.
16. Jamolova, G. (2023, May). PEDAGOGIK TAJRIBA SINOV ISHLARINI TASHKIL ETISH VA O ‘TKAZISH METODIKASI. In International Scientific and Practical Conference on Algorithms and Current Problems of Programming.
17. Jamolova, G. M. (2022). PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA O ‘QUVCHILARGA INFORMATIKA FANINI O ‘QITISHNING METODIK MODEL. Educational Research in Universal Sciences, 1(2), 102-109.